XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 28 - dekabr VI-71-226-7-94-K/22 Jomboy tumani hokimligi

Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati Jomboy tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” gi VI-46-115-7-94-K/21-sonli qaroriga tegishli tartibda o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

Tumanimizda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, aholini ijtimoiy himoya qilish, soliq yukini kamaytirish, soliq yig‘uvchanligini va mahalliy budjetning qo‘shimcha daromadlarini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27 moddasiga asosan, shuningdek Samarqand viloyati Moliya bosh boshqarmasining 2022 yil 30 noyabrdagi 01/02-38/883-son va Jomboy tuman davlat soliq inspeksiyasining 2022-yil 1-dekabrdagi 15-09075-sonli xatlarini inobatga olib, Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlangan 2021-yil 30-dekabrdagi VI-46-115-7-94-K/21-sonli qarorining 1-ilovasida 2022-yil uchun tasdiqlangan mahalliy budjet parametrlardagi ayrim soliq turlari bo‘yicha reja ko‘rsatkichlarining ijrosini sifatli ta’minlash maqsadida tegishli tartibda o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi VI–chaqiriq LXXI-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “ Samarqand viloyati Jomboy tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida ”gi VI-46-115-7-94-K/21-sonli qarorining 1-ilovasida tasdiqlangan “Aylanmadan olinadigan soliq” va “Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i” turlari ilovaga muvofiq yangi tahrirda bayon etilsin.

2. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (G‘.Burxonov) 2022-yil uchun tasdiqlangan tuman mahalliy budjet parametrlardagi ayrim soliq turlari bo‘yicha

rejasiga Samarqand viloyati Moliya bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (O.Odilov) mazkur qarorni “Jomboy tongi” gazetasida chop etilishini hamda tuman hokimligi rasmiy veb-saytiga o‘rnatilgan tartibda joylashtirilishi tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetini shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (S.Baxodirov)ga, ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Majidov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Q.Sobirov**

Xalq deputatlari Jomboy tuman
Kengashining
2022 yil 28 dekabrdagi
VI-71-226-7-94-K/22-son
qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi VI-46-115-7-94-K/21-sonli “Samarqand viloyati Jomboy tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qaroriga tegishli tartibda o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

Aylanmadan olinadigan soliq pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

Soliq turi	Summada (ming so‘mda)
Aylanmadan olinadigan soliq	8 433 400, 0

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

Soliq turi	Summada (ming so‘mda)
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8 771 600, 0